

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

UMARSHAYX MIRZONING HARBIY FAOLIYATI TARIXIY MANBALAR TALQINIDA

Begimqulova Laylo Mashrabovna

Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti

O‘zbekiston tarix kafedrasi dotsenti

e-mail: begimqulova@internet.ru

Nishonov Usmonbek Karimovich

Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti

O‘zbekiston tarix kafedrasi II-bosqich magistranti

Annotatsiya: Amir Temur farzandlarini yoshlikdan siyosiy faoliyatga olib kirishga, ularga davlat ishlari, harbiy yurishlar haqida bilim berishga harakat qilgan. Buni Umarshayx mirzoning o‘smirlik yoshida ko‘rsatgan jasoratida ko‘rishimiz mumkin. Bo‘lib o‘tgan Balx qal‘asi jangida Umarshayx mirzo jasorati ko‘rsatadi va mardonalik bilan dushmanni yengadi. Amir Temur farzandlariga yoshlikdan jasoratli bo‘lish, mard bo‘lishni o‘rgatganligi dalillangan. Amir Temur davlati taraqqiyotida Umarshayx mirzoning tutgan o‘rni va uning siyosiy, harbiy faoliyati va uning qatnashgan yurishlardan biri Chukalak mavzeyidagi jang tarixining o‘rganilishi, ayni masalaga bo‘lgan e‘tibor haqida ba‘zi fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Umarshayx mirzo, To‘xtamishxon, Abbos, Sulaymonshox ibn Dovud, Baronxoja Kukaltosh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Xilda Xukhem, Markaziy Osiyo, Turkiston, Movarounnahr, Andijon, Samarqand, Sabron, To‘ytepa.

Annotation: Amir Temur tried to involve his children in political activities from a young age, to give them knowledge about state affairs and military campaigns. We can see this in the courage shown by Umarsheikh Mirza in his adolescence. In the battle of Balkh Castle, Umarsheikh Mirza shows courage and bravely defeats the enemy. It is proven that Amir Temur taught his children to be brave and courageous from a young age. Some comments are made about the role of Umarsheikh Mirza in the development of Amir Temur's state, his political and military activities, and the study of the history of the battle in the Chukalak region, one of the campaigns in which he participated, and the attention paid to this issue.

Key words and phrases: Amir Temur, Umarshaykh Mirza, Tokhtamysh Khan, Abbas, Suleimanshah ibn Davud, Baron Khoja Kukaltash, Sharafiddin Ali Yazdi, Nizamiddin Shami, Muiniddin Natanzi, Hilda Hukhem, Central Asia, Turkestan, Movarunnahr, Andijan, Samarkand, Sabran, Toytepa.

Аннотация: Амир Темур старался с юных лет вовлекать своих детей в политическую деятельность, обучать их государственным делам и военным походам. Мы можем видеть это в мужестве, проявленном Умаршейхом Мирзой в юношеские годы. В битве за крепость Балх Умаршейх Мирза проявляет мужество и храбро побеждает врага. Доказано, что Амир Темур с юных лет воспитывал своих детей храбростью и мужеством. В статье дается характеристика роли Умаршайха Мирзы в развитии государства Амира Темура, его политической и военной деятельности, а также изучение истории битвы в районе Чукалак, одного из походов, в котором он принимал участие, а также уделяемое этому вопросу внимание.

Ключевые слова: Амир Темур, Умаршайх Мирза, Тохтамыш-хан, Аббас, Сулейманшах ибн Давуд, барон Ходжа Кукалташ, Шарафиддин Али Язди, Низамиддин Шами, Муиниддин Натанзи, Хильда Хукхем, Средняя Азия, Туркестан, Моваруннахр, Андижан, Самарканд, Сабран, Тойтепа.

KIRISH

Markaziy Osiyo mintaqasining o‘ziga xos o‘tmishi, uning hududida ko‘plab davlat birlashmalarining, xususan, buyuk Amir Temur saltanatining tashkil topishi va taraqqiy etganligi, bu yerda sodir bo‘lgan jarayonlarning jahon tarixidagi ahamiyati turli mamlakat tarixchilarining katta qiziqishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda tarixiy meros, tarixiy xotiraning qayta tiklanishi nafaqat O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati va tarixchilarining, shu bilan birga keng jamoatchilikning diqqat e’tiborida bo‘lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi va davriga oid shu qadar ko‘plab manbalar tarjimasi amalga oshirildi, tarixiy-ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar yaratildiki, bu ularni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tizimlashtirish, ilmiy tahlil etish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy tarix fani uchun dolzarb hisoblandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mustaqillik yillarida bir qator mualliflar tomonidan Amir Temur va temuriylar davri tarixiga doir salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, B.Ahmedov, A.Muhammadjonov, U.Uvatov, A.Ahmedov, T.Fayziev, O.Bo‘riyev, B.Usmonov, Sh.O‘ljayeva, kabi olimlarning asarlari, ilmiy tadqiqot ishlarini keltirish mumkin[1]. Ularning tadqiqotlarida Umarshayx mirzoning bolalik yillari, siyosiy va harbiy faoliyati haqida qisman to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan, T.Fayzievning “Temuriylar shajarasi” asarida Umarshayx mirzoning yoshlik yillari, uning harbiy mahorati haqida aytib o‘tadi. Xorij tadqiqotchilaridan biri Xilda Xukxem, tadqiqotlarida ham Umarshayx mirzoning faoliyatining ayrim jihatlarida qisman to‘xtalib o‘tilgan [2]. Xilda Xukxem o‘z asarida 1388-yili Amir Temur o‘g‘illari Umarshayx mirzo, Shohruh mirzo, nabiralar Muhammad Sulton, Pir Muhammadlarni uylantiradi va Konigilda katta to‘y qiladi. Shundan keyin Umarshayx mirzo ham Farg‘onaga qaytganini alohida ta’kidlab o‘tgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Amir Temur davlati taraqqiyotida Umarshayx mirzoning tutgan o‘rni va uning siyosiy, harbiy faoliyatini tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan.

Umarshayx mirzo qatnashgan yurishlardan biri Chukalak mavzeyidagi jang bo‘lgan. Bu jang tasviri Sharafiddin Ali Yazdiyda shunday berilgan: “...Movarounnahr soridin chopar elchi o‘n yetti kunda yetib, xabar berdikim, To‘xtamishxon yana ahdini sindurub, qalin kishini Movarounnahr sori yibarib turur. Va munung kayfiyati bu tururkim, dasht cherikikim, ulug‘i Bek Yoruq, Ilig‘mish O‘g‘lon, Alibek, Sotqin va o‘zga beklar Sig‘naqdin o‘tub, Sabrong‘a yetib, qamal qildilar. Oq Bug‘a o‘g‘li Temur Xojakim, Sabronning hokimi erdi, alarning dafig‘a mashg‘ul bo‘lib, yaxshi ishlar qildi va tashqari o‘lturg‘on yag‘ilar har necha sa‘yi qildilarkim qal‘ani olg‘aylar, ololmadilar[3]. Ojiz bo‘lub, andin ko‘chub, o‘zga yerlarni chobtilar. Shahzoda Umarshayxkim, Andigonda erdi, andagi cherikni yig‘ishturub, alarning dafig‘a yuridi va Sulaymonbek va Abbosbek taqi Samarqand cherikini jam etib, La‘lbekkim, Tag‘ay Bug‘a Barlosning inisi erdi va Shayx Temurkim, Oq Temurnung o‘g‘li erdi, Samarqandda so‘yub, o‘zi mutavajjih bo‘ldi. Va kelib amirzoda Umarshayxga qo‘shuldilar va ittifoq bilan Sayhundin o‘tub, Chukalakkakim, O‘trorning besh yag‘ochida turur, kun chiqar sorida erdi, ikki cherik bir-biriga yettilar va yasollar tortib, o‘ng qo‘l va so‘l qo‘l tuzulg‘ondin (so‘ng) bir-biriga chopishtilar va kechag‘acha o‘ldirushti. Amirzoda Umarshayx bahodurlig‘idin o‘zini dushmanlarning g‘o‘li[4]da urub, nari o‘ta chiqti va cherikdin ayrildi. Cherik eli ani ko‘rmadilar, mutavahhim bo‘lub, buzuldilar va Abbosbekka o‘q tegib, zaxmliq bo‘ldi. Shahzoda Umarshayx davlat bilan dushmanlarning ichidin salomat chiqib, Andijong‘a ketti va yana cherik jam etdi”[5].

Bu jang bo‘lib o‘tgan joy nomi va sanasi Nizomiddin Shomiyda boshqacharoq uchraydi: “...1388-yilning tir (iyun-iyul) oyida To‘xtamishxon lashkari viloyat atrofiga yetib kelgan edi. Viloyatning elu ahli qochdilar. Amirzoda Umarshayx bahodir lashkar yig‘ib Xo‘jand daryosidan o‘tdi. Sulaymonshoh bahodir, Abbos bahodir va o‘zga amirlar bir vaqtda Chulok mavzeyida dushmanga yetdilar. Ikki tomondan saf tortilib maymana va maysaralarga tartib berdilar. So‘ng bir-birlariga hamla qilib jang boshladilar. Jang shu darajaga yetdiki o‘lganlarning ko‘pligidan qon ariq bo‘lib oqdi. Umarshayx mirzo dushmanni ortidan quvlab borib o‘z lashkarlaridan ajralib qoldi. Askarlari uni qancha izlamasin topa olmadi va hayronu sargardon bo‘lib, to‘xtab turishni ma‘qul ko‘rmay, zaruratan tarqalib ketdilar. Jahon shahzodasi salomat qaytib, Andijonda lashkarga yetdi. Yana to‘zg‘ib ketgan lashkarlarni jam qildi”[6].

Chukalak jangi tavsilotlari Muiniddin Natanziy asarida ham batafsil bayon etilgan: “To‘qmoq lashkari[7] Kura daryosi sohilida muzaffar lashkar tomonidan mag‘lub etilgach, To‘xtamish bu sharmandalik dog‘ini yuvish uchun, Qamariddinni Oqxoja o‘g‘lon bilan birgalikda Turkiston yo‘lidan Movarounnahrغا yubordi. Abbos, Sulaymonshox ibn Dovud va Baronxoja Kukaltosh Samarkand lashkarlari bilan Turkiston muzofotlaridan bo‘lgan To‘ytepa hududida amirzoda Umarshayxga borib qo‘shilishdi va birgalikda To‘qmoq lashkarini daf etish uchun otlanishdi. Jangovar saflarni tartibga keltirgandan so‘ng amirzoda Umarshayx o‘z odatiga ko‘ra, Abbosni g‘ulda qo‘ydi va o‘zi qorovul baxodirlari bilan muqaddimada turib g‘anim lashkariga tashlandi. Bir-ikki martaba huddi g‘azabnok sher kabi dushmanning chap va o‘ng

qanotiga yorib kirib, unga qaqshatgich zarbalar berdi. Ammo uni kichik bir gurux, bilan o‘rab olib, qurshov doirasi halqasini tobora toraytirishdi. Amirzoda qaysi tarafga yuzlansa, (o‘sha yokda) dushmanning hamhlasi susayib qolardi. Bir necha soat davom etgan ushbu qirpichoq olishuv paytida Samarqand amirlari amirzoda Umarshayx va uning yonidagilar ahvolidan xabar olmadilar. Ularning xar birining ko‘ngliga minglab rost-u yolg‘on vasvasa yo‘l topib, oqibatda ish chappasiga ketibdi, degan xayolda jilovni burib, Samarqand tarafga qarab yo‘lga tushishdi[8]. Amirzoda Umarshayx yuzga yaqin otlik askar bilan g‘animning o‘ng va so‘l tarafiga rustamona hamhlalar qilib, Isfandiyor hunarlarini zohir etdi. U amirlar qochib ketishganidan xabardor bo‘lgach, hayron bo‘lib, jilovni o‘z g‘uli tarafga burdi. O‘zjand lashkarini ham jargada topolmadi. Bu xiyonatkorona qilmishlardan amirzoda benixoyat iztiroblar chekdi va ushbu janggohda halok bo‘lib, benomuslik dog‘ini o‘zi bilan tuproqqa olib ketish umidida, o‘sha kichik guruh bilan tag‘in bir-ikki marotaba (dushman saflariga) qattiq hamhlalar qildi. Bu yuz odamning zarbalaridan mingdan ortiq dushman halok bo‘ldi. Bir g‘amxo‘r kishi amirzodaning sa‘y-harakat jilovini shafqat qo‘li bilan ushlab, uni janggohdan tashqariga olib chiqdi. Amirzoda Umarshayx shu darajada jangga talabgor ediki, jang maydonidan bir farsah uzoqlashgach, Samarqand amirlariga paygom yuborib, bu qabih xatti-harakatlariga qarshi o‘laroq, ularni butun choralar bilan Samarqandni himoya etishga undadi va o‘zi katta lashkar bilan ularga madadga yetib borish maqsadida O‘zjand tomonga yo‘l oldi. U kelishidan ilgari, janggohdan qochib undan ajragan xos mulozimlaridan bir guruhi o‘zlarining egri tasavvurlari xosilasi bo‘lgan yomon ovozalarni (shaharga) yetkazishdi. Chunonchi, amirzoda Umarshayxning xaramlari shaharni o‘z holiga tashlab, tog‘ga yo‘l olishdi. Shahar aholisi bir necha firqaga bo‘linib, g‘alayonga keldi. Amirzoda Umarshayx yetti otliq bilan yetib kelib, viloyat aholisiga taskin berdi va bir qancha lashkarlar hozirlab, Samarqand tarafga otlandi”[9].

Yuqorida ko‘rib chiqqanimiz Chukalak jangi tavsilotlari mazmun jihatidan uchala manbalarda ham deyarli bir xil ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan va keng oritilgan.

XULOSA

Buyuk davlat arbobi, ma‘rifat homiysi, yuksak ma‘naviyat egasi Amir Temur va uning avlodlari qoldirgan, abadiylikka daxldor merosi bugungi kunda xalqimiz ruhiy-ma‘naviy poklanishi va milliy o‘zligini anglashning bitmas-tuganmas chashmasidir. O‘zbek davlatchiligi tarixida sohibqiron Amir Temur va temuriylar davri tarixi muhim ahamiyatga egadir. Buning sababi sohibqiron Amir Temur davlatning boshqaruv, tashqi va ichki siyosat, obodonchilik sohasida boshqa davlatlarga o‘rnak bo‘ladigan ishlarni amalga oshirganlar. Sohibqiron Temur davrida bunyodkorlik davlat siyosati darajasida ko‘tarilgan deyishimiz mumkin.

Mazkur maqolada, Amir Temurning o‘g‘li Umarshayx mirzoning siyosiy va harbiy faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumotlar orqali tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlardagi fikrlar umumlashtirildi, Umarshayx mirzoning hokimiyat boshqaruvi va harbiy salohiyati o‘rganildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи - Ғулом Каримий – Т.: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.
2. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўтирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўтирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996. – 143-144 б.
3. Шарафиддин Али Ўздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Аҳмад ва Ҳ.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
4. Шарафиддин Али Ўздий. Зафарнома. Мовароуннаҳр воқеалари (1360-1370) / Маъсул муҳаррир, сўз боши муаллифи ва нашрга тайёрловчи А.Ўринбоев, таржимон О.Бўриев – Т.: Камалак, 1994. – 288 б.
5. Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. / Нашрга тайёрловчи Сирожиддин Саййид. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 96 б.
6. Usmonov B. Farg‘ona vodiysi Amir Temur va Temuriylar davrida. – Farg‘ona: Farg‘ona, 2019. – 110 b.